

14. Ravshanova N.A. Usmonov I.M.Chulliev A.K., Isroilov B. Photosynthetic activity of bean ordinary depending on ways of seeding/ Science Review// DOI: https://doi.org/10.31435/rsglobal_sr/31102019/6747

15. Otayarova G.U., Ravshanova N.A. Oddiy loviya navlarning sug'orish tartiblarini vegetatsiya davrning davomiyligiga ta'siri International Scientific-Practical Conference Actual Issues Of Agricultural Development: Problems And Solutions June 6-7, 2023 <https://doi.org/10.5281/zenodo.8012567>

16. Равшанова Н.А., Отаёрова Г., Полвонов С.А. Технологические аспекты возделывания сортов маша (Phaseolus aureus) в совместных и совмещённых посевах с хлопчатником International Scientific-Practical Conference Actual Issues Of Agricultural Development: Problems And Solutions June 6-7, 2023 <https://doi.org/10.5281/zenodo.8012218>

17. Otayarova G.YU., Xalilov N. i Ravshanova N.A. (2024). LOVIYANING O'SISHI, O'SISH DJADALLIGI VA O'RTACHA SUTKALIK O'SISHIGA SUG'ORISH TARTIBLARINING TA'SIRI. УЧЕНЫЙ, 2 (5), 95-100. <https://scholar-journal.org/index.php/s/article/view/102>.

18. Tursunov Sh. N. Otayarova G. U., Quldoshev B. X., Imomnazarova F., N. A. Ravshanova. «Veterinariya va chorvachilik sohalarini rivojlantirishda yosh olimlarning o'rni» mavzusidagi magistrlar va iqtidorli talabalarning ilmiy – amaliy konferensiyasi. <https://sciencebox.uz/index.php/tibbiyot/issue/view/106>, 1010-1013

UO*T: 631.11. 631.8. 633.6

YANGI LOVIYA NAVLARINI SUG'ORILADIGAN YERLARDA YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Otayarova Gulshoda Uzakovna,

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

“O'simlikshunoslik va yem-xashak yetishtirish” kafedrasida assistenti,

Ravshanova Nilufar Adilovna,

Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti laboratoriya mudiri,

Tursunov Shermuxammad Nurmatovich,

Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti, Samarqand ilmiy tajriba stansiyasi direktori,

Isroilova Mahliyo Salom qizi,

Imomnazarova Farzona Farxod qizi,

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti talabalari.

Annotatsiya. Maqolada loviyaning agrotexnikasi, oziq-ovqatlik ahamiyati, yangi Ravot va Mahsuldor navlarining tasnifi, ularning sug'oriladigan yerlarda takroriy ekin sifatida yetishtirish texnologiyasining ayrim jixatlarini o'rganish natijalari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ang'iz – kuzgi g'alla ekinlardan bo'shagan maydon, takroriy ekin- asosiy ekindan keyin ekiladigan ekin, o'timishdosh ekin- ekiladigan ekindan oldin ekilgan ekin, inokulyasiya-donlarni nitragin preparati bilan ishlanishi.

Аннотация. В статье описано агротехническое и пищевое значение фасоли, классификация новых сортов Равот и Махсудор, результаты изучения некоторых элементов технологии ее выращивания как повторной культуры на орошаемых землях.

Ключевые слова: ангиз – площадь, освобожденная от осенних посевов зерновых, повторный посев – посев после основного урожая, предшественник – посев перед следующим посевом, инокуляция – обработка зерна нитрагином.

Abstract. The article describes the agrotechnical and nutritional significance of beans, the classification of new varieties Ravot and Mahsuldor, the results of studying some elements of the technology of its cultivation as a repeat crop on irrigated lands.

Key words: angiz - area freed from autumn grain crops, re-seeding - sowing after the main harvest, predecessor - sowing before the next sowing, inoculation - treatment of grain with nitragine.

Kirish. Loviya - keng tarqalgan oziq-ovqat ekini. Uning urug'lari, yashil dukkaklari, konservalangan dukkaklaridan oziq-ovqat mahsulotlari, turli taomlar tayyorlashda foydalaniladi. Urug'larini ma'zasi yaxshi, tez pishadi hamda hazmlanadi. Loviya dukkakli don ekinlari orasida ekish me'yori bo'yicha soyadan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi [1].

Loviya o'simligi oziq-ovqatda, texnikada, konserva tayyorlashda, qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishda, yem-xashak sifatida ishlatiladi. Loviyaning bunday ishlatilishi donning sifatiga bog'liq. Loviya parhez taomlar tayyorlashda, ayniqsa qandli diabet kasalligiga chalingan kishilar uchun foydali taom

hisoblanadi. Ko'p ma'lumotlarga ko'ra, donining tarkibida 22,3 % oqsil, 54,5 % uglevodlar, 1,7 % yog', 3,9 % kletchatka, - 3,6 % kul moddalar mavjud. Energiya qiymati ham yuqori–100 gramm urug'da 309 kkal (1293 kDj) saqlanadi [3,4].

Loviya donining tarkibida almashib bo'lmaydigan va odam organizimiga juda kerakli aminokislotalar-lizin, triptofan, metionin, treonin, valin, fenilalanin, leysin, izoleysin bor. SHuning uchun loviyani almashtirib bo'lmaydigan konsentrat deyishadi. Loviya donining tarkibidagi oqsil juda yaxshi hazm bo'ladi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha go'sht va baliq oqsiliga yaqin (86-90 %). Uning doni tarkibida temir moddasi 2,8, fosfor-2,6, kaliy-3,3,

magniy-4,5, kalsiy-15 barobar go'sht tarkibidagidan ko'proq. Yashil dukkaklarida 2 % qand, shuningdek 100 g massasida 22 mg vitamin saqlanadi. [15,16]

Loviya dukkaklari alohida parhezlik ahamiyatiga ega. Nisbatan kaliy miqdorining ko'p, natriyning kam bo'lishi siydik haydashni kuchaytiradi hamda yurak ishiga ijobiy ta'sir etadi. Loviya qand kasalligi bor kishilar qonidagi qandni boshqarish xususiyatiga ega. Doni tarkibidagi arginin insulinga o'xshash ta'sir qilish xususiyatiga ega. Glyukokinin qon tarkibidagi qand miqdoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. SHuningdek, xalq tabobatida dukkaklarining qaynatmasi buyrak kasalliklari va qon bosimi oshganda, revmatizm kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Loviya uni qo'shilib tayyorlangan don lizinga boy va u bolalar uchun juda foydali..

Loviya muhim agrotexnik ahamiyatga ega. Paxta-g'alla qisqa rotatsiyali almashlab ekishlarda takroriy ekin sifatida joylashtirilganda ildizlarida yashaydigan tuganak bakteriyalar faoliyati natijasida 80-120 kg/ga azot to'playdi, tuproqning suv-fizik xossalari yaxshilaydi, unumdorligini oshiradi, loviyadan keyin ekilgan bug'doyzorning fitosanitar holatini yaxshilaydi, bug'doy hosili va sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [1,5,6].

Oddiy loviya (*Phaseolus vulgaris* Savi) poyasi tup yoki chirmashadigan. Dukkagida 3-5 urug' bo'ladi. 1000 urug' vazni 200-1000 g. Urug' rangi turlicha, oqdan to'q sariqqacha [2].

Ravot navi-Samarqand qishloq ho'jalik institutida yaratilgan va 2012 yilda Davlat reestriga kiritilgan. Nav mualiflari: N.X.Xalilov, Z.B.Islomova, N.A.Ravshanova.

Ravot ertapishar nav. Pishib etilgan urug'larning biologik pishish davri 73-79 kunga to'g'ri keladi. Pishish davridagi urug' hosildorligi 21-25 s/ga tashkil etadi. Biologik pishish davrida 1000 dona urug'ning massasi 488-502 gramm. Urug'larida oqsil miqdori 28,0 %, moy 4,5 % ni tashkil qiladi. Dukkaklari poyaning hamma qismlarida shakllanadi (40-70 dona). Donidan har xil taom va salatlar tayyorlashda foydalaniladi va parhez mahsulot bo'lib hisoblanadi. Tovarligi jahon bozori talablariga javob beradi. O'simlik yashil massasi hayvonlar uchun to'yimli ozuqa hisoblanadi. Pishganda dukkagi yorilib ketmaydi va doni to'kilib ketmaydi hamda hosilni mexanizatsiya yordamida yig'ishtirib olishga yaroqli [3].

Mahsuldor navi-Samarqand qishloq ho'jalik institutida Ravot-1 (93/11) nav namunasidan yakka tanlash yo'li bilan yaratilgan va 2014 yilda Davlat nav sinash komissiyasiga berilgan. Nav mualiflari: N.X.Xalilov, N.A.Ravshanova, P.X.Bobomirzaev, O.M.Sulaymanov. O'rtapishar nav. Urug'larning biologik pishish davri 87-91 kunga to'g'ri keladi. Bu nav Ravot navi nisbatan 12-14 kun kech pishadi. Pishish davridagi hosildorlik 25-27 s/ga tashkil etadi. 1000 dona donining massasi 490-1000 gramm. Urug'larida 28,0 % oqsil, 4,8 % moy saqlaydi. Dukkaklari poyaning hamma qismlarida shakllanadi (45-77 dona). Pishgan doni har xil taom va salatlar tayyorlashda foydalaniladi va parhez mahsulot bo'lib hisoblanadi. Nav Respublikamizning barcha viloyatlarida bahorda (asosiy ekin) va ang'izga (takroriy) ekishda to'liq hosil shakllantiradi. Tovarligi jahon bozori talablariga javob beradi. O'simlik yashil massasi hayvonlar uchun to'yimli oziqa hisoblanadi. Pishganda dukkagi yorilib ketmaydi va doni to'kilib ketmaydi hamda hosilni mexanizatsiya yordamida yig'ishtirib olishga yaroqli [3].

Loviyani sug'oriladigan yerlarda takroriy ekin sifatida kuzgi boshloqli don ekinlari arpa va bug'doy ang'iziga, ertagi kartoshka va sabzavot ekinlaridan keyin ekish tavsiya etiladi.. Sklerotiniya kasalligi tarqalgan joylarda loviyani kungaboqardan keyin joylashtirish tavsiya etilmaydi. Uni kuzgi don ekinlari nobud

bo'lgan yoki juda siyraklashib ketgan dalalarga qayta ekiladigan ekin sifatida o'stirish mumkin. Loviya kuzgi don ekinlari, makkajo'xori, g'o'za uchun yaxshi o'tmishdosh. Uni makkajo'xori, shuningdek kartoshka bilan ham aralashtirib ekish mumkin.

Takroriy ekiladigan loviya uchun boshloqli don ekinlaridan bo'shagan dala sug'oriladi va tuproq yetilishi bilan 22-25 sm chuqurlikda haydaladi, chizellanadi, boronalanadi, mola bosilib yer ekishga tayyorlanadi.

Loviya ekiladigan dalaga yerni haydashdan oldin fosforli, kaliyli o'g'itlar beriladi. Har gektar yerga fosforli, kaliy o'g'itlarning yillik me'yori muvofiq holda 60-80 va 40-60 kg solinadi. Organik o'g'itlardan chirigan go'ng gektariga 10-15 t yerni haydash oldidan berish urug' hosilini oshishini ta'minlaydi. Azotli o'g'it ekish oldidan kultivatsiya bilan gektariga 10-25 kg beriladi. Loviya urug'lari unib chiqqandan keyin ikki hafta o'tgandan keyin ildizlarida tuganaklar hosil bo'lmasa 120 kg/ga azot qo'llanadi. Gektariga 60 kg azot birinchi kultivatsiya bilan, yana 60 kg ikkinchi kultivatsiya bilan oziqlantirish sifatida beriladi. Oziqlantirishlar sug'orish uchun jo'yaklar olishda ham berilishi mumkin. Loviyaga ekish oldidan kul solish hosildorlikni oshirish bilan birgalikda hosil pishishini ham tezlashtiradi.

Ekish-uchun begona o'tlar urug'laridan shuningdek singan hamda kasallangan urug'lardan tozalangan, saralangan loviya urug'laridan foydalaniladi. Ekishdan 20-30 kun oldin Panoktin bilan 200 g/s, yoki Vitovaks 200 FF 300 g/s uruqqa hisobida ishlanadi. Bevosita ekiladigan kuni nitragin bilan inokulyatsiya qilinadi. Ekishdan oldin urug'larni oftobda yoyib quritish urug'lar unuvchanligini yaxshilaydi.

Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti Samarqand ilmiy tajriba stansiyasi, sug'oriladigan yerlar sharoitida loviyaning Ravot va Mahsuldor navlari 2021 yilda 1;16 iyul va 1 avgust muddatlarida ekilganda ikkala nav bo'yicha ham 1 iyulda ekilganda urug' hosildorligi muvofiq holda 22,3; 28,5 s/ga ni, 16 iyulda ekilganda 18,6; 20,8s/ga ni, 1 avgustda ekilganda Ravot navidan 15,1 s/ga hosil olingan. Mahsuldor navi urug'lari 1 avgustda ekilganda to'la pishib yetilmaganligi qayd etilgan. Ekish muddatlari viloyatlar tuproq-iqlim sharoiti inobatga olingan holda o'zgarishi mumkin. Ang'izga ekilgan loviyaning Ravot navi asosan qator oralari 60 sm qilib punktirib ekilganda 60x10sm sxemada 1 gektarga 167 ming dona urug' yoki 83 kg urug' sarflanadi. Agar 60 x 12 sm sxemada ekilsa gektariga 68 kg urug' ekilgan. Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti Samarqand ilmiy tajriba stansiyasida o'tkazilgan tajribalarda loviyaning Ravot navi ang'izda 60x10-1 sxemada ekilganda o'rtacha 22 s/ga hosil olingan. O'tkazilgan ko'plab tajribalar loviya O'zbekiston sharoitida Ravot navi ang'izda qator oralari 60 sm, ekish me'yori 68-83 kg/ga bo'lganda hosildorlik eng yuqori bo'lishini ko'rsatdi. Ko'rsatilgan ekish me'yorini kamaytirish yoki oshirish don hosilining kamayishiga olib kelgan. Mahsuldor navi 60x12sm-1 sxemada ekilganda hosildorlik 28 s/ga ni tashkil etgan.

Qator oralari 60 sm qilib ekishning qulayligi yana shundaki Respublikadagi asosiy ekin g'o'za ham qator oralari ko'pchilik hollarda 60 sm qilib ekiladi. Shuning uchun g'o'za o'stirishda qo'llaniladigan texnikani loviya o'stirishda bemalol qo'llash mumkin.

Qator oralari 70 sm qilib ekilganda ekish sxemasi 70x8sm Ravot navi uchun, Mahsuldor navi uchun 70x10 sm tavsiya qilinadi.

Loviya urug'lari 4-5 sm chuqurlikka ekiladi. Tuproq mexanik tarkibi qumoq bo'lsa ekish chuqurligi 6-8 sm oshiriladi. Urug'larni juda chuqurga tashlash dala unuvchanligining pasayishiga, ko'p urug'larning chirib ketishiga sabab bo'ladi. Ekish SPCH-6,

SPCH-8A, SST-12A seyalkalarida o'tkaziladi. Lavlagi urug'larini ekadigan SST-12A seyalkasidan foydalanilganda STYA-31000 qo'shimcha seksiyasi o'rnatiladi. Urug'larni ekishda chigit ekadigan STVX-4 yoki SON-2,8 sabzavot seyalkalaridan ham foydalanish mumkin.

Ang'izga ekilgan loviya maysalari unib chiqqandan keyin mayda chopiq qilinadi. Bunda begona o'tlar yo'q qilinadi, tuproq aeratsiyasi yaxshilanadi. O'simliklar oziqlantiriladi, sug'oriladi, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashiladi.

Qator oralarini ishlashga kirishish maysalar unib chiqib, qatorlar hosil bo'lganda boshlanadi. Qator oralari birinchi kultivatsiyada 6-8 sm, ikkinchi kultivatsiyada 10-14 sm chuqurlikda ishlanadi. Keyingi kultivatsiya ekinzorni begona o'tlar bilan ifloslanishi, tuproqning zichlashib qolganligi, sug'orishdan keyin tuproqni yetilganligiga bog'liq holda o'tkaziladi. Qator oralarini ishlash odatda har 10-15 kunda o'tkaziladi, ularning soni ekinzor holatiga qarab belgilanadi.

O'suv davrida tuproqdagi namlik CHDNSning 70% kam bo'lmasligi talab qilinadi. Yozgi muddatda ang'izga ekilganda sizot suvlar chuqur joylashgan bo'z tuproqlarda sug'orishni egatlab 3-4 marta o'tkazish tavsiya qilinadi. Sizot suvlar yuza joylashgan maydonlarda loviya 2-3 sug'oriladi. Har bir sug'orishdan keyin tuproq yetilishi bilan kultivatsiya o'tkaziladi. O'zbekiston sharoitida sug'orishni to'g'ri tashkil qilib o'tkazish yuqori hosil olishni ta'minlaydi.

Loviya hosili urug'lardagi namlik 14-16 % ga yetganda Dominator, Holland, Keys yoki boshqa rusumdagi kombaynlar

bilan o'rib-yanchib olinadi. Urug'lardagi namlik 12 % dan yuqori bo'lganda barabanlarning aylanish tezligi minutiga 500-600 ga kamaytiriladi, barabanlar oralig'i kengaytiriladi. Barabanlarning aylanish tezligi urug'lardagi namlik 12 % dan kam bo'lganda minutiga 300-400 ga kamaytiriladi. Hosil massasida namlik yuqori bo'lsa barabanlar oralig'i qisqartiriladi.

Hosilni yig'ishtirish qisqa muddatlarda nobudgarchiliksiz o'tkaziladi. Urug'lik uchun ekilgan maydonlarda hosil tozalanadi, urug'lar saralanadi. Bu ishlar VS-2, saralaydigan «Zmeyka», shuningdek OVP-20, OS-4,5, ZAV-20, «Petkus-gigant», «Super-Pektus» mashinalarda o'tkaziladi. Urug'lar namligi 14 % dan ortiq bo'lmagan holda saqlanadi.

Kuzgi bug'doy hosilidan bo'shagan ang'izga ekish uchun yaroqli, o'suv davri 70-90 kun bo'lgan, dukkaklari pishib yetilganda yorilib, donlari to'kilib ketmaydigan, hosilni mexanizatsiya yordamida yig'ishtirib olishga imkon beradigan loviyaning yangi navlarini yaratilishi va yetishtirish agroteknikasini ishlab chiqilishi fermer xo'jaliklarida urug'lik va sifatli don yetishtirishga imkon beradi. Loviya, ildizlarida tuganak bakteriyalar yordamida atmosfera azotini o'zlashtirib, biologik azot to'playdi, azotli o'g'itlarni, energiyani, resurslarni tejashni ta'minlaydi, o'tmishdosh ekin sifatida tuproqni suv-fizik xossalariга ijobiy ta'sir ko'rsatadi loviyadan keyin ekilgan bug'doyzorni begona o'tlardan tozalashga, kasallik va zararkunandalar bilan zararlanish darajasining pasayishiga imkoniyat yaratadi.

Urug'lar tozalangandan keyin namligi 15-16 % holatida, shamollatib turiladigan binolarda saqlanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Iminov A.A., Xalikov B.M. Takroriy ekinlarni tuproqdagi oziq moddalar miqdoriga ta'siri. // O'zbekiston tuproqshunoslar va agrokimyogarlar jamiyati V qurultoyi maqolalar to'plami. - Toshkent, TAITDI. 2005. - B.257-258.
2. Oripov R., Xalilov N. O'simlikshunoslik //; Toshkent, 2004
3. Xalilov N., Ravshanova N., Otayarova G.U. va boshqalar Ang'izga ekish uchun yaroqli loviya yangi navlari va ularning agroteknikasi (tavsiiyanoma) //; Samarqand, 2014
4. LOVIYANING O' SISHI, O 'SISH JADALLIGI VA O 'RTACHA SUTKALIK O 'SISHIGA SUG 'ORISH TARTIBLARINING TA'SIRI. GU Otayarova, N Xalilov, NA. Ravshanova , SCHOLAR 2 (5), 95-100
5. H.A.Усманов, H.A.Равшанова, Г.У.Отаярова. ЗАВИСИМОСТ ДЛИНЫ ВЕГЕТАЦИОННОГО ПЕРИОДА СОРТОВ ФАСОЛИ ОБЫКНОВЕННОЙ ОТ СРОКОВ И СПОСОБОВ ПОСЕВА. Academic research in educational sciences 2 (10), 718-724
6. Xalilov, N., Kosimova, SH., Otayarova, G., O'ktamov, X., & Abduqodirov, B. (2022). SILOS MASSA UCHUN MAKKAJO'XORI DURAGAYLARINI ETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 1207-1209.
7. Bekmuradova, X. K., & Ismoilov, A. I. Samarkand, Uzbekistan Samarkand Institute of veterinary medicine, Samarkand, Uzbekistan The scientific research institute of vegetable groups and potato studies in Samarkand scientific-experimental station, Samarkand, Uzbekistan. BVB 65.2 S56, 58.
8. Бекмурадова, X. K., Исмоилов, A. И., & Ахмадалиев, Б. Ж. (2019). ОЦЕНКА ИСХОДНОГО МАТЕРИАЛА ДЛЯ СОЗДАНИЕ НОВЫХ УСТОЙЧИВЫХ К ВИРУСНОЙ МОЗАИКЕ СОРТОВ ТОМАТА. Актуальные проблемы современной науки, (3), 170-173.
9. Омонов, А. Ж. (2021). ОПТИМИЗАЦИЯ СРОКОВ И НОРМ ПОСЕВА ПРОСА. Актуальные проблемы современной науки, (4), 83-87.
10. Omonova, J. idr. INFLUENCE OF CONDITIONAL INSTALLATION ON BIOMETRIC INDICATORS AND GRAIN HARVEST //Life Sciences and Agriculture. – 2020. – T. 2. – №. 2. – S. 60-64.
11. Uluqova, S. B., Mavlonov, B. T., & Ismoilov, V. I. (2023). KUZGI JAVDAR DON VA SOMON HOSILDORLIGIGA EKISH MUDDATI VA ME'YORINING TA'SIRINI BAHOLISH. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 2(4), 28-31.
12. Abdisaxatova, S. S., Ismoilov, V. I., & Mavlonov, B. T. (2024). Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti. GOLDEN BRAIN, 2(3), 76-80.
13. Усманов Н. А., Равшанова Н.А., Отаярова Г.У. Зависимость длины вегетационного периода сортов фасоли обыкновенной от сроков и способов посева. // Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 10 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-10-718-724 Google Scholar Scientific Library of Uzbekistan Academic Research, Uzbekistan 718 www.ares.uz
14. Ravshanova N.A. Usmonov I.M.Chulliev A.K., Isroilov B. Photosynthetic activity of bean ordinary depending on ways of

seeding/ Science Review// DOI: https://doi.org/10.31435/rsglobal_sr/31102019/6747/

15. Otayarova G.U., Ravshanova N.A. Oddiyloviyanavlarining sug'orish tartiblarini vegetatsiyadavrnig davomiy ligata'siri International Scientific-Practical Conference Actual Issues Of Agricultural Development: Problems And Solutions June 6-7, 2023 <https://doi.org/10.5281/zenodo.8012567>.

16. Ravshanova N.A., Otaёrova G., Polvonov S.A. Tekhnologicheskie aspekty vozdel'nyvaniya sortov masha (Phaseolus aureus) v sovmestnykh i sovmeshёnnykh posevax s xlopchatnikom International Scientific-Practical Conference Actual Issues Of Agricultural Development: Problems And Solutions June 6-7, 2023 <https://doi.org/10.5281/zenodo.8012218>

17. Otayarova G.YU., Xalilov N. i Ravshanova N.A. (2024). LOVIYANING O'SISHI, O'SISH DJADALLIGI VA O'RTACHA SUTKALIK O'SISHIGA SUG'ORISH TARTIBLARINING TA'SIRI. UCHENIY , 2 (5), 95-100. <https://scholar-journal.org/index.php/s/article/view/102>.

18. Tursunov Sh. N. Otayarova G. U., Quldoshev B. X., Imomnazarova F., N. A. Ravshanova. «Veterinariya va chorvachilik sohalarini rivojlantirishda yosh olimlarning o'rni» mavzusidagi magistrlar va iqtidorli talabalarning ilmiy – amaliy konferensiyasi. <https://sciencebox.uz/index.php/tibbiyot/issue/view/106>, 1010-1013.

UO'T: 631.11. 631.8. 633.6

LOVIYA POYASINING BO'YI VA OSTKI BIRINCHI DUKKAKLARINING YERDAN BALANDLIGI

Otayarova Gulshoda Uzakovna,

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

“O'simlikshunoslik va yem-xashak yetishtirish” kafedrasasi assistenti,

Ravshanova Nilufar Adilovna,

Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti laboratoriya mudiri,

Tursunov Shermuxammad Nurmamatovich,

Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti, Samarqand ilmiy tajriba stansiyasi direktori,

Xurshidova Marjona Abror qizi,

Zokirova Mavluda Foziljonovna,

Yusupova Mahliyo Sobir qizi,

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti talabalari.

Annotatsiya. Mazkur maqolada loviyani ang'izga ekkanda poyasining balandligi va ostki dukkaklarning yerdan balandligi haqida bayon qilingan. Loviya poyasi va dukkaklarning yerdan balandligi ekish muddatlari va me'yorlariga bog'liq holda o'zgarishlari kuzatildi. Loviya kuzgi bug'doy ang'iziga erta muddatlarda ekilsa, uning bo'yi va ostki birinchi dukkaklarining balandligi yuqori bo'lishi kuzatildi. Shuning uchun loviyani takroriy ekin sifatida kuzgi bug'doy ang'izida keng maydonlarda yetishtirish imkoniyatini oshirishda loviyani ang'izga iyul oyining (1.07) boshida gektariga 400 ming dona urug' sarflab ekish maqbul hisoblanganligini tajriba natijalari ko'rsatib berdi.

Аннотация. В этой статье описана высота стебля и высота нижних стручков от земли при посадке фасоли в поле. Установлено, что высота стеблей и стручков фасоли от земли менялась в зависимости от сроков и стандартов посадки. Было замечено, что если фасоль была посажена рано на поле осенней пшеницы, ее высота и высота первых стручков были выше. Таким образом, результаты эксперимента показали, что допустимо высаживать фасоль в начале июля (1,07) из расчета 400 000 семян на гектар с целью повышения возможности выращивания фасоли в качестве повторной культуры озимой пшеницы на больших площадях.

Abstract. This article describes the height of the stem and the height of the lower pods from the ground when planting beans in the field. It was found that the height of the stems and pods of beans from the ground varied depending on the timing and standards of planting. It was observed that if beans were planted early in a field of fall wheat, their height and the height of the first pods were higher. Thus, the results of the experiment showed that it is acceptable to plant beans in early July (1.07) at a rate of 400,000 seeds per hectare in order to increase the possibility of growing beans as a repeat crop of winter wheat over large areas.

Kirish. Loviyani takroriy ekin sifatida kuzgi bug'doy ang'izida yetishtirishda poyasining balandligi va ostki birinchi dukkaklarining yerdan qanday darajada baland bo'lishi loviyaning ekish muddatlari va me'yorlariga bog'liq ravishda o'zgardi [1,2,3].

Loviya hosilini texnika yordamida yig'ishtirib olishda loviyaning bo'yi va birinchi dukkaklarining yerdan balandligi muhim ahamiyatga ega. Agar loviyaning bo'yi past bo'lsa, birinchi dukkaklarining yerdan balandligi ham past bo'lib, hosilni yig'ishtirib

olishda donning nobud bo'lish muammosi yuzaga keladi. Bunday muammo ko'proq loviya maqbul muddatlarda va me'yorlarda ekilmaganda kuzatiladi [4,5,6].

Loviyaning dukkaklari pishib yetilgan vaqtda tanasi, barglari va boshqa qismlari yashil holatda bo'lib, don hosilini to'gridan-to'gri kombayn bilan yig'ishtirib olish imkonini bermaydi. Shu sababli loviya yetishtiradigan xo'jaliklarda ko'pchilik holatlarda loviya hosilini yig'ishtirib olishda dukkaklarining 70-80 foizi yetilganda,